ISSN:2308-5703
Impact factor:13.5 *International Multidisciplinary Online Journal* November, 2026

MORFEMIKA. MORFEMALAR TIZIMI

Rajabova Fazilat
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti O‘zbek filologiyasi fakulteti 2- kurs talabasi
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.24246886

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilshunoslikning muhim bo‘limlaridan biri morfemika, morfema va uning vazifasiga ko‘ra turlari, o‘zak morfema, affiksal morfema, sodda affikslar, murakkab affikslar, zid ma’nolilik, ma’nodoshlik hosil etuvchi morfemalar to‘g‘risida ma'lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: morfemika, o‘zak morfema, affiksal morfema, zid ma'nolilik, ma'nodoshlik, sodda affikslar, murakkab affikslar, sonlash morfemalari, nisbatlovchi morfemalar, suffiksal, prefiksal morfema.

Аннотация: В данной статье представлена информация о морфемике, одной из важных отраслей лингвистики, морфемах и их типах в зависимости от функции, корневых морфемах, аффиксальных морфемах, простых аффиксах, сложных аффиксах, антонимах, синонимах.

Ключевые слова: морфемика, корневая морфема, аффиксальная морфема, антонимы, синонимы, простые аффиксы, сложные аффиксы, исчисляемые морфемы, сравнительные морфемы, суффиксальные морфемы, префиксальные морфемы.

Abstract: This article provides information about morphemics, one of the important branches of linguistics, morpheme and its types according to its function, root morpheme, affixal morpheme, simple affixes, complex affixes, antonyms, synonyms.

Keywords: morphemics, root morpheme, affixal morpheme, antonyms, synonyms, simple affixes, complex affixes, countable morphemes, comparative morphemes, suffixal, prefixal morpheme.

KIRISH

Morfemika – so‘zning eng kichik ma’noli qismlari doirasidagi ta’limot sanaladi. Bu kichik qismlar tilshunoslikda morfemalar deb yuritiladi. Masalan, terimchilarimizga so‘zi terim -chi -lar -imiz -ga qismlaridan tarkib topgan. Agar qismlar yana bo‘linadigan bo‘lsa uning ma’nosi tamoman yo‘qoladi. Demak, morfema so‘zning eng kichik bo‘lagidir. Morfema tarkibiga ko‘ra fonemalar kompleksidan, ba'zan bitta fonemadan tashkil topadi. Masalan, u -ni, kitob -i. Morfemalar so‘z yasalishiga ham so‘z o‘zgarishiga ham aloqadordir. Masalan, naqqosh -chi bo‘lsa so‘z yasalish hodisasi, naqqosh -ni bo‘lsa shakl yasalish hodisasidir. Bunda naqqosh asos qismga -chi affiksal morfemaning qo‘shilishi natijasida shaxs oti yasalayotganini va so‘z anglatayotgan ma’no qismi o‘zgarganligini ko‘rishimiz mumkin.

METODLAR

Maqolada morfemika va morfemalar tizimiga oid ma’lumotlarni o‘rganishda tavsiflash, tahlil qilish, qiyoslash va morfemik tarkibiy tahlil usullaridan foydalanilgan. So‘zlarning tarkibiy qismlarini aniqlashda o‘zak va affiksal morfemalar ajratib ko‘rsatilgan. Shuningdek, so‘z yasovchi va shakl yasovchi morfemalarning vazifalari misollar asosida tahlil qilingan. Morfemalarning ma’no

xususiyatlarini aniqlashda ma’nodoshlik, zid ma’nolilik va shakldoshlik hodisalariga e’tibor qaratilgan. O‘zbek tilidagi so‘zlarning morfemik tuzilishi hamda fonetik o‘zgarishlarini o‘rganishda mavjud misollar qiyosiy ravishda ko‘rib chiqilgan.

NATIJALAR

Affiksal morfemalar xarakter jihatdan ikki turga ajratiladi: so‘z yasovchi va shakl yasovchi affikslar. So‘z yasovchi affikslar so‘zga qo‘shilib, yangi ma’no ifodalaydi. Mehnat + kash = mehnatkash, bilim + don = bilimdon, lola + zor = lolazor. Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish joizki, affikslar ma’nodoshlik, zid ma’nolilik va shakldoshlik xususiyatiga ham egadir. Masalan, qalamdon - qadrdon, toshqin - jo‘shqin. Bunday so‘zlarda bir xil qo‘shimcha qo‘shilsa ham, bitta qo‘shimcha ikki xil turkumga oid so‘z yasagan. Sifat so‘z turkumiga qarashli so‘zlarni hosil qilishda affikslar o‘rtasida zid ma’nolilik yuzaga chiqadi. Davlatli - davlatsiz, ko‘ngilli - ko‘ngilsiz.

Ushbu affikslar orasida ko‘proq -li va -siz, -dor va be qo‘shimchalari qarama-qarshi ma’noda qo‘llanish hodisasi mavjud. -li, -kor, -dor, -bo, -ba, -ser kabi qo‘shimchalar ma'nodoshlik xususiyatiga ega. Sergo‘sht - go‘shtli, savlatli-basavlat kabi. Affikslar tuzilishiga ko‘ra sodda va murakkab affikslarga bo‘linadi. Sodda affikslar faqat bitta affiks qo‘shimcha orqali namoyon bo‘ladi. Gul + li = gulli, paxta + kor = paxtakor. Murakkab affikslar esa ikki yoki undan ortiq qo‘shimchalar birikishidan yuzaga keladi. Ba’zan affiksal morfemalarning odatdagi tartibida o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin. Masalan, akam + lar = akalarim tarzida qo‘llanishi mumkin.

So‘zning tub ma’noli qismiga asos deyiladi. Asosda qo‘shimchalar qo‘shish natijasida turli xil ma’nolar yuzaga chiqariladi. Masalan: tin-ch, tin-ish, tin-ch-lik, tin-im-siz, be-tin-im kabi so‘zlarning asosi tin so‘zidir, lekin qo‘shimcha qo‘shilishi bilan ma’no o‘zgarib bormoqda.

Ayrim so‘zlar tarixiy taraqqiyot natijasida o‘zining tub — asos qismini o‘zgartirishi, boshqacha shaklga kirishi mumkin. Yomg‘ir (yom-g‘ir), ko‘mir (ko‘m-mir), olg‘a (ol(d)-ga) kabi so‘zlarni asos va qo‘shimchaga ajratib bo‘lmaydi. Turkiy tillarda, jumladan, o‘zbek tilida ham asos ko‘pincha birinchi bo‘lib keladi. Masalan: tadbirkor, toy-choq va h.k.

Bir asosdan yasalgan so‘zlar asosdosh sanaladi: fikrdosh, fikriy, hamfikr, fikran singari. Ba’zi hollarda asosdan oldin ham qo‘shimcha qo‘shilishi mumkin. Masalan: bexabar, nodavlat, serhashamat, bama’ni. Bunday qo‘shimchalar, asosan, sifat so‘z turkumida uchraydi. Biror narsaga egalikni (badavlat, baquvvat, serfarzand, serqatnov) yoki ega emaslikni (beibo, behayo, no‘rin, nomard) bildiradi.

Qo‘shimcha qo‘shilishi bilan ba’zan asosda o‘zgarish ro‘y berishi mumkin.

1. Tovush tushadi:

past-ay → pasay;

sust-ay → susay;

o‘rin-a → o‘rna.

2. Tovush o‘zgaradi:

ong-la → angla;

son-a → sana;

quvna-q → quvnoq.

3. Tovush orttiriladi:

u-ga → unga;

shu-da → shunda;

bu-dan → bundan.

Affiksal morfemalar suffiksal va prefiksal morfemalarga bo‘linadi. O‘zak morfemadan keyin qo‘shilib kelgan morfemalar suffiksal morfema, o‘zak morfema oldidan qo‘shilib keladigan morfemalar prefiksal morfema deyiladi. Masalan, befarqlik, noaniqroq so‘z shakllari tarkibidagi -lik, -roq affiksal morfemalar, -be, no- esa prefiksal morfemalar sanaladi.

Umumlashtirilgan holda aytish joizki, so‘zlar birinchi navbatda morfemik tartib asosida shakllanadi va grammatik mazmun anglatadi. Morfemalar sonlash morfemalari paradigmasi nisbatlovchi morfemalar paradigmasiga ajratiladi. Grammatik miqdor ma’nosini ifodalovchi morfemaga sonlovchi deyiladi. Sonlash morfemalari paradigmasi ot leksemaga bevosita qo‘shiladi: leksema + sonlovchi – elim + lar, fasl + lar kabi.

Mantiqiy miqdor bilan grammatik miqdor o‘zaro farq qiladi. Mantiqan atovchi ot yakka predmetni ataydi. Sobir, Chilonzor kabi. Ayni shu ism bilan bir necha predmet atalishi mumkin, lekin shunda ham ism har gal yakka predmetni ataydi. Turdosh ot esa turining nomi sifatida mantiqan bittadan ortiq predmetni nomlaydi. Shu bilan birga turdosh ot yakka predmetni anglatib ham keladi. Masalan, ko‘chat – leksemasi bitta ko‘chatni ham, ko‘p ko‘chatni ham bildiradi.

Ko‘rinadiki, atovchi otning yakka predmetni atashi bunday ot leksemaning semantikasiga bog‘liq. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida -lar affiksi omomorfema bo‘lib, sonlash paradigmasining asosi sifatida bir necha ma’nolarni ifodalashga xizmat qiladi. Ushbu affiks nisbatlash paradigmasining, tuslash paradigmasining ayrim morfemalari tarkibida ham ishlatiladi. Boshqa morfem paradigmalar tarkibida qatnashadigan -lar affiksini sonlash paradigmining -lar affikliga nisbatan omonim deyish joiz. Bulardan tashqari nisbatlash morfemalari orasida yuzaga kelib hurmat ma’nosini ifodalaydigan -lar morfema ham mavjud.

O‘zi qo‘shilayotgan asosdan anglatiladigan predmetning birlik yoki ko‘plikdagi uch shaxsdan biriga nisbat berilayotganini ifodalovchi morfemalar nisbatlovchi deyiladi. Nisbatlovchi morfemalar paradigmasi ayrim adabiyotlarda olti a’zoli deb ko‘rsatilib, har bir morfema qolgan besh morfema bilan oppositiv munosabat hosil etishi quyidagi chizma orqali aks etadi:

(-im) (-imiz) (-ing) (-ingiz) (-i) (-lari)

Bunda III shaxs morfemasining ifoda jihati i fonemanga tengligi to‘g‘ri ko‘rsatilgan, -i shaklida ta’kidlanmagan. I, II shaxs morfemalari -da ularning ifoda jihati -im kabi yozilgan, vaholanki bu morfemalar oldiga qo‘shiladigan i tovushi ushbu affikslarning ifoda jihati tarkibiga kirmaydi. Demak, fonema emas, balki asos bilan affiksni tutashtiradigan tovush. Ko‘rinadiki, nisbat-lovchi affiklarning ifoda jihati biriga I, II shaxsda va III shaxsda turlicha yondashilgan. Asli an’anaviy usuldan chetga chiqmagan holda har uch shaxs affikslarini -(i)m, -(i)ng, -(s)i, -(i)miz, -ingiz tarzida yozib ko‘rsatish to‘g‘ri, shunda, eyftirma tovush fakultativ ekani ochiq bildiriladi. Bu paradigma qisman to‘g‘ri, asli egalik ma’nosi hatto qaramlilik ma’nosi ham ushbu hodisani to‘liq ifodalamaydi. Shuni hisobga olib ushbu paradigmani nisbatlovchi paradigmasi deb, morfemalarini esa nisbatlovchi deb qaralgan.

Jamiyatning tarixiy taraqqiyoti davomida yangi-yangi tushunchalar paydo bo‘ladi. Bu yangi tushunchalarning har biri alohida-alohida so‘zlar bilan ifodalanganda edi, so‘zlarning soni cheksiz ravishda ko‘payib ketgan va ularni xotirada saqlash imkoniyati yo‘qolgan, natijada tilimiz aloqa vositasi sifatida yaroqsiz holga kelib qolgan bo‘lardi.

Tilning imkoniyatlari shu darajada boyki, o‘z vositalar bilan cheksiz tushunchalarni, xilma-xil axborotlarni ifodalash mumkin.

Yangi-yangi tushunchalarni ifodalashda ilgari tilimizda mavjud bo‘lgan so‘zlarga ko‘makchi morfemalarni qo‘shib, yangi so‘z hosil qilish usuli keng qo‘llaniladi. Ana shunday usul bilan yangi so‘z hosil qilish so‘z yasalishi sanaladi.

Ko‘makchi morfemalar qo‘shish yo‘li bilan yangi so‘z yasalishi doimo ikki qismning bo‘linishini talab qiladi:

1. So‘z yasashga asos qism.
2. Yasovchi qism.

Yasovchi qismni tashkil etgan morfemalar so‘z yasovchi morfemalar deyiladi.

Masalan, terim so‘zi ter so‘ziga -im so‘z yasovchi morfemasini qo‘shish orqali hosil qilingan. Terimchi so‘zi esa terim so‘ziga -chi qo‘shimchasini qo‘shish bilan hosil qilingan. Demak, birinchi so‘zda yasovchi asos ter, ikkinchi so‘zda esa terimdir.

Ishchi, ishla so‘zlarining yasovchi asosi bir xil. Bir asosdan hosil bo‘lgan so‘zlar so‘z yasalish uyasini tashkil etadi.

Suvchi so‘zi “suv quyish bilan shug‘ullanuvchi shaxs” ma’nosini, terimchi so‘zi “temir bilan ish ko‘ruvchi shaxs”, toshloq “toshga serob joy” ma’nosini bildiradi. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, yasovchi morfema asosida yangi yasalgan so‘z yasalishga asos bo‘lgan so‘zning ma’nosiga asoslanadi, uning ma’nosi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Agar yasalgan so‘z bilan yasalishga asos qism o‘rtasida ana shunday bog‘lanish bo‘lmasa, yasama so‘z hisoblanmaydi.

Solishtiring: tepki “tepishga xoslangan” so‘zi tep so‘zi bilan mazmunan bog‘lanadi, lekin tulki, eski so‘zlarini tul va ki, es va ki qismlarga ajratib bo‘lmaydi, chunki tulki va eski so‘zlari, tul – “beva”, es – “aql”, “xotira” so‘zlari bilan mazmunan bog‘lanmaydi.

Yetakchi morfemalarga qo‘shilib, yangi so‘z hosil qilmaydigan, so‘zning turli xil shakllarini vujudga keltiradigan morfemalar shakl yasovchi morfemalar deyiladi. Masalan, yaxshigina, Zamiraxon, ukamni va h.k.

Yuqorida qora harflar bilan berilgan morfemalar shakl yasovchi morfemalardir. Shakl yasovchi morfemalar sintaktik munosabatni bildirish-bildirmasligiga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi:

1. Sintaktik munosabat bildirmaydigan morfemalar. Bunday morfemalar lug‘aviy shakl yasovchi morfemalar deyiladi.
2. Sintaktik munosabat bildiradigan morfemalar. Bunday morfemalar sintaktik shakl yasovchi morfemalar hisoblanadi.

Qayiqchi so‘zidagi -gach morfemasi o‘qi so‘ziga qo‘shilib, undan yangi so‘z ham yasamaydi, bu so‘zni boshqa so‘zga bog‘lash uchun ham xizmat qilmaydi. Shuning uchun u lug‘aviy shakl yasovchi morfemadir.

Yetakchi morfemaga qo‘shilib, undan yangi so‘z yasamaydigan va o‘zi qo‘shilgan so‘zni boshqasiga bog‘lash uchun xizmat qilmaydigan shakl yasovchi morfemalarga lug‘aviy shakl yasovchi morfemalar deyiladi.

Kitobim, kitobni so‘zlarida kitob so‘ziga qo‘shilgan -im va -ni morfemalari o‘zi qo‘shilgan so‘zni boshqa so‘zga bog‘lash uchun xizmat qiladi.

MUHOKAMA

Yuqoridagi ma’lumotlardan ko‘rinadiki, morfemalar so‘zning tarkibiy tuzilishida muhim o‘rin egallaydi. O‘zak va affiksal morfemalar o‘zaro birikib, so‘zning lug‘aviy va grammatik ma’nolarini yuzaga chiqaradi. So‘z yasovchi morfemalar yangi ma’noli birliklarni hosil qilishga xizmat qilsa, shakl yasovchi morfemalar so‘zning turli grammatik shakllarini shakllantiradi.

Affikslarning ma’nodoshlik, zid ma’nolilik va shakldoshlik xususiyatlari ularning til tizimidagi imkoniyatlari keng ekanligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, -li va -siz, -dor va be kabi qo‘shimchalarning qarama-qarshi ma’noda qo‘llanishi so‘zlarning mazmuniy jihatdan farqlanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, prefiksal va suffiksal morfemalarning mavjudligi qo‘shimchalarning so‘z tarkibida turlicha joylashishini ko‘rsatadi.

Morfemik tarkibni o‘rganishda tovush tushishi, tovush o‘zgarishi va tovush orttirilishi hodisalariga ham e’tibor qaratish lozim. Chunki qo‘shimchalar qo‘shilishi natijasida ayrim so‘zlarning fonetik tarkibida o‘zgarishlar yuzaga keladi. Bunday holatlarni misollar yordamida o‘rganish so‘z tarkibini to‘g‘ri tahlil qilishga yordam beradi.

Sonlovchi va nisbatlovchi morfemalar paradigmasi esa grammatik ma’nolarning ifodalanishida alohida ahamiyatga ega. -lar affiksining turli paradigmalarda qatnashishi uning bir nechta ma’noda

qo‘llanishini ko‘rsatadi. Shu sababli morfemalarni faqat tashqi shakliga qarab emas, balki ularning grammatik vazifasi va ma’nosiga qarab ham farqlash zarur.

So‘z yasalishida asos va yasovchi qismning o‘zaro munosabati muhim hisoblanadi. Yangi so‘z hosil bo‘lishida yasovchi morfema asosning ma’nosiga tayanadi. Shakl yasovchi morfemalar esa yangi so‘z hosil qilmasdan, mavjud so‘zning turli shakllarini yuzaga keltiradi. Bu ikki hodisani farqlash morfemik tahlilning asosiy jihatlaridan biridir.

XULOSA

Morfemika so‘zning eng kichik ma’noli qismlarini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limi hisoblanadi. Morfemalar o‘zak va affiksal qismlardan tashkil topib, so‘zning lug‘aviy hamda grammatik ma’nolarini shakllantirishda ishtirok etadi. Affiksal morfemalar so‘z yasovchi va shakl yasovchi turlarga ajratiladi. Ularning har biri so‘z tarkibida o‘ziga xos vazifani bajaradi.

O‘zbek tilida morfemalarning joylashuvi, tovush o‘zgarishlari, so‘z yasash va grammatik shakllarni hosil qilish xususiyatlari morfemalar tizimining murakkabligini ko‘rsatadi. Sonlovchi va nisbatlovchi morfemalar esa grammatik ma’nolarni ifodalashda muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, morfemik tahlil orqali so‘zlarning tarkibiy qismlarini aniqlash, o‘zak va qo‘shimchalarning vazifalarini farqlash hamda so‘z yasalish jarayonini tushunish mumkin. Shu jihatdan morfemika va morfemalar tizimini o‘rganish o‘zbek tilining grammatik qurilishini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qalandar Sapayev. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. “Fan” nashriyoti. Toshkent, 2009. 6-bet.
2. https://n.ziyouz.com/books/uzbek_adabiy_tili/Qalandar%20Sapayev.%20Hozirgi%20o'zbek%20tili.%20Morfemika,%20so'z%20yasalishi%20va%20morfologiya.pdf
3. Shavkat Rahmatullayev. HOAT. “Universitet” nashriyoti. Toshkent, 2006. 140–142-betlar.
4. https://n.ziyouz.com/books/uzbek_adabiy_tili/Shavkat%20Rahmatullayev.%20Hozirgi%20o%27zbek%20adabiy%20tili.pdf
5. Xadicha Muhiddinova. “O‘qituvchi” nashriyoti matbaa ijodiy uyi. Toshkent, 2006. 67–70–71–72-betlar.
6. https://n.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/ona-tili_va_adabiyot/Hozirgi%20o'zbek%20adabiy%20tili%20(X.Muhiddinova,%20D.Xudoybergenova).pdf
7. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 1, 2, 3-kitoblar. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining I, II, III bosqich talabalari uchun darslik. – Toshkent: «ILM ZIYO», 2013. 116-119-betlar.
8. https://tsuull.uz/sites/default/files/hozirgi_o_zbek_adabiy_tili_1_2_3_kitoblar_a_nurmonov_a_sobirov.pdf